XALQ DEPUTATLARI MUZRABOT TUMANI KENGASHINING QARORI

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-10-67

2023 - yil 29 - iyul VI-62-107-8-115-K/23 Muzrabot tuman hokimligi

Muzrabot tumani mahalliy byudjetining 2023-yil II chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘larini maqsadli ishlatilishi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2022-yil 30-dekabrdagi 813-sonli Qonuniga muvofiq tuman byudjetining 2023-yil II chorak daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismi mablag‘larini tuman byudjetining 2023-yilgi byudjet parametrlarida ko‘zda tutilgan xarajatlarilarga, jumladan, birinchi navbatdagi zarur yo‘nalishlarga ajratilishini ta’minlash maqsadida tuman hokimligi iqtisodoyot va moliya bo‘limi mudirining hisoboti xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishida muhokama etilganligini inobatga olib, xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2022-yil 30-dekabrdagi 813-son Qonuniga muvofiq mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman byudjetining joriy yil II chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi **2565,5 million so‘m**ni tashkil etganligi hamda ushbu mablag‘lar hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan takliflar doirasida yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida tuman hokimligi iqtisodoyot va moliya bo‘limi mudirining

hisoboti xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy isloxatlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishida muhokama etilganligi tasdiqlansin.

3. Tuman byudjetining joriy yil II chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilsin:

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi xarajatlari uchun:

- tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish xarajatlari uchun **10,0 million so‘m;**
- tuman Obodonlashtirish boshqarmasining moddiy texnika bazasini mustahkamlash xarajatlari uchun **50.0 million so‘m;**

Tuman hokimligi xarajatlari uchun:

- tuman hokimligining internet xizmatlari uchun **95,0 million so‘m;**

- tuman hokimligining foydalanilgan elektr energiya xizmati xarajatlari uchun **66,0 million so‘m**;

- tuman hokimligi balansidagi xizmat avtomashinalariga ehtiyot qismlari xarid qilish xarajatlari uchun **27,0 million so‘m**;

- tuman hokimligi balansidagi xizmat avtomashinalarining yoqilg‘i xarajatlari uchun **18,0 million so‘m**;

- tumandagi bayram va boshqa tadbirlarni o‘tkazishda sud qarori orqali vujudga kelgan qarzdorliklarni qoplash uchun **189,0 million so‘m**;

- tumandagi hokim yordamchilariga olib berilgan kompyuter jamlanmasidan sud qarori orqali vujudga kelgan qarzdorliklarni qoplash uchun **150,0 million so‘m**;

- tuman hokimligi xodimlarini Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malakasini oshirish bilan bog‘liq xarajatlar uchun **11,0 million so‘m**;

- tuman hokimligiga gilam sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun **20,0 million so‘m**;

- tuman hokimligi e-qaror, e-kengash tizimlarining abanent to‘llovlari uchun **12,0 million so‘m**;

Tuman Davlat soliq inspeksiyasi xarajatlari uchun;

- tumandagi 4-sektor binosini ta’mirlash ishlarini olib borish bilan bog‘liq xarajatlari uchun **70,0 million. so‘m;**

Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xarajatlari uchun;

- Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash xarajatlari uchun **32,5 million so‘m**,

Xalq deputatlari tuman Kengashi xarajatlari uchun;

- xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarini rag‘batlantirish xarajatlari uchun **8.25 million so‘m;**

- xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudirini rag‘batlantirish xarajatlari uchun **3.75 million so‘m;**

- tuman “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga **385,0 million so‘m**, “Ayollar daftari” jamg‘armasiga **385,0 million so‘m**, “Temir daftari” jamg‘armasiga **263,0 million so‘m**, jami bo‘lib **1033,0 million so‘m** ajratilsin.

- tumanda jamoatchilik fikriga asosan ("Open budget" tizimi 30%) tuman mahalliy byudjeti rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismidan sarflanadigan mablag‘lar uchun **770,0 million so‘m** ajratilsin.

4. Tuman hokimligi iqtisodoyot va moliya bo‘limi mudiri (I.Kushakov)ga tuman mahalliy budjetining joriy yil II chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan hisobot berib borsin.

5. “Muzrabot” gazetasi tahririyati (A.Yo‘ldashev)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

6. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi ta’minlanganligi yuzasidan tumandagi mutasaddi tashkilotlar rahbarlariga xalq deputatlar tuman Kengashiga har chorak yakuni bo‘yicha yozma axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (L.Musayev) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **A.Ismailov**